

*Ulmas MEYLIYEV,
MTTDMQTMOI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Renessans ta'lif universiteti professori, s.f.d. T.T.Alimardonov taqrizi asosida

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA “OMMAMIV MADANIYAT”, “MAFKURAVIY IMMUNITET” VA MA’NAVIV HAYOTNI SOG‘LOMLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida ommoviy madaniyat, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma’naviy omillarning o’rni globallashuv, mafkura, haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ommamiv madaniyat, fan, mafkura, g‘oya, milliy g‘oya, millat, jamiyat, mafkurafiy tahdid, ma’naviyat, ma’naviy xuruj, globallashuv, madaniyat, tahdid.

«КУЛЬТУРА СИЛЫ», «ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ ИММУНИТЕТ» И МЕТОДЫ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль духовных факторов в формировании и развитии массовой культуры, идеологический иммунитет в развитии общества, глобализация, идеология.

Ключевые слова: Массовая культура, наука, идеология, идея, национальная идея, нация, общество, идеологическая угроза, духовность, традиционная атака, глобализация, культура, угроза.

“POWER CULTURE”, “IDEOLOGICAL IMMUNITY” AND METHODS OF HEALTHY SPIRITUAL LIFE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation

This article discusses the role of spiritual factors in the formation and development of mass culture, ideological immunity in the development of society, globalization, ideology.

Key words: Popular culture, science, ideology, idea, national idea, nation, society, ideological threat, spirituality, traditional attack, globalization, culture, threat.

Kirish. Hozirgi vaqtida globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda, shuni ob‘ektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqiyocida boshqa mintaqqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobji natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo‘lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga bo‘lib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o‘rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizasiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir[1].

Ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayan shaxs, jamoa, muayan guruhi, jamiyat, millatda jismoniy barkomollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tarbiyadir.

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadiriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadiriyat va abadiy qadiriyatlardir.

Immunitet – muayyan himoya demakdir va u nimaningdir oldini olishga, unga qarshi kurashga qaratilgan bo‘ladi. Milliy g‘oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtoshimizning sog‘lom e’tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo‘lishini taqozo etadi. Mafkuraviy bo‘shliqnini to‘ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim yo‘nalishidir. Bugungi insoniyat turli xil g‘oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharotida yashamoqda.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g‘oya tom ma’noda g‘oya bo‘lishi uchun kishilar ongini egallashi, to‘g‘rirog‘i, ularning qalbidan joy olishi shart. Aks holda u yoki bu g‘oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egallab yotaverishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bunday holatda g‘oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

G‘oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma’naviy-ruhiy holatining uziyi qismiga aylangandagina harakatga da‘vat etuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo‘llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g‘oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda, mafkuraviy poligonga aylantirilmoxda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zga hududlarni zabit etish maqsadida ishlatalidigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko‘ramiz. U nayzalardan toki zamонави quronlarga, zambaraklardan to Yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit’alararo ballistik raketalargacha bo‘lgan uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo‘lgan hududlarni aholisini jismonan yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa o‘zga hududlarni zabit etish ularning aholisini yo‘qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabit etilgan, qarash va kayfiyatlar «ma’qul» yo‘nalishga o‘zgartirilgan aholi ko‘magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo‘lib qolmoqda.

Mafkura poligonlarida sinovdan o‘tayotgan, mohiyatan g‘ayriinsoniy bo‘lgan g‘oyalarga qarshi tura olish uchun aholida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim. Immunitet kishi vujudining turli infekzion kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashqi ta’sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi. Avvalo,

insonning ko‘plab xususiyatlari tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxlsizlikni ta‘minlash mumkin[2].

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va bиринчи unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko‘p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki aggressiv millatchilik mafkurasini va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomonidan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob‘ektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma‘naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinci tomondan, bu bilimlar o‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob‘ektiv va chuqr bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamonning o‘ziga xos xususiyatlardan biri shuki, u chegara bilmaydigan, hududni pisand qilmaydigan xilma-xil muammolarga serob. Biron davlat – u xoh katta, xoh kichik davlat bo‘ladimi, ichida vujudga kelgan muammo tez sur‘atlar bilan, nafaqat yon-veridagi qo‘sni davatlarga, balki olisdagi mamlakatlarga ham kirib bormoqda. Bir davlatning tashvishi boshqalarni ham tashvishga solmoqda. Muammolar ko‘lami yoyilib ketmoqda, boshqacha aytganda, globallashmoqda[3].

Shunday qilib, «tahdid»ning yuzaga kelishida «xavf-xatar» voqeasi va jarayonlarda barqarorlikning amal qila boshlashida yetakchi omil vazifasini bajaradi. «Xavfsizlik»ning mavjudligi esa «tahdid»ni yuzaga kelmasligini ifoda etadi, uning barqarorlik holatiga tushib qolishi, «xavf-xatar»ning yuzaga kelishi va uning rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri «tahdid»ning yuzaga kelishiga olib keladi.

Mafkuraviy tahidlardan biri «ommaviy madaniyat» niqobidagi tahidlardir. Ushbu tahidlarning asl mohiyatini aniqlashdan oldin, «ommaviy madaniyat»ning tushunchasini to‘liq anglab yetish va uning asosiy xususiyatlarini o‘rganish lozim. Zero, bugungi kunda dunyoni standart holatga keltirish, shu asosda jahon tizginini o‘z qo‘liga olishni istagan ayrim manfaatparast kuchlar o‘zlarining axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi, millatlar milliy madaniyatini yemirishga va insomning ma‘naviy begonalashishiga olib keluvchi jarayonlarni osongina mamlakat ichkarisiga kirdizish uchun «ommaviy madaniyat»ni niqob qilib olishgan. Aynan mafkuraviy tahidlarning mazkur ko‘rinishi «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi mafkuraviy tahidlardan deyilib, u doimo qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Yuqorida fikrlarni inobatga olgan holda shunday fikr kelib chiqadiki, ommaviy madaniyatdan salbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun, shuningdek, undan salbiy illatlarning yuzini bekitadigan niqob sifatida foydalanganda, u, albatta, qo‘shtirnoq ichida yoziladi[4].

«Ommaviy madaniyat» (ing. «mass culture») tushunchasiga falsafa va jamiyatshunoslik fanida XX asr o‘rtalarida burjua madaniyatini ifodalovchi tushuncha sifatida paydo bo‘lgan deb qaraladi. Shuningdek, ommaviy madaniyat zamonaviy madaniyatni ishlab chiqarish va iste’molchilikni tavsiflash uchun ishlataladigan jarayon sifatida ham o‘rganilgan. Ushbu madaniyat jamiyatni bir tizimga (standart) solish va nisbatan osonroq qo‘lga olib boshqarishni asosiy maqsad qilib oladi. Ushbu jarayonda ishlab chiqarish mahsulotlariga alohida e‘tibor qaratilib, ular bir xil (standartlashtirilgan) holatga keltiriladi, hamda omma ongiga yetkaziladi. Bizningcha, “ommaviy madaniyat”ning muhim belgisi bu inson faoliyatini uzuksiz absurd xattiharakatga yo‘naltirish, undagi ko‘ngilxushlik, lazzatlanish tuyg‘usini junbushga keltirishi bilan xarakterlanadi.

“Ommaviy madaniyat” iborasi XX asrning ikkinchi yarmidan qo‘llana boshlangan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ontologik nuqtai-nazardan “Ommaviy madaniyat”ning tarqalishi makon va zamonda turlicha kechgan. Qadim davrlarda ham “ommaviy madaniyat”ni tarqatish bilan shug‘ullanilgan. O’sha zamonlarda bu ish bilan band bo‘lgan maxsus xufiya idoralari tashkil etilgan. Shuningdek, savdogarlar, sayyoohlар, olimlar ham bu ishga jalb qilingan. Ayrim hollarda “ommaviy madaniyat” urush, bosqinchilik, zo‘ravonlik, majburlash yo‘li bilan o‘zga yurtlarda joriy etilgan.

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi muammosi ilmiy izlanuvchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini XIX asrning oxirlarida xalq maorifini rivojlanishiga, san’at va adabiyotda yuz bergan keng ko‘lamli o‘zgarishlar bilan bog‘laydilar[5]. Ikkinci guruh tadqiqotchilar uni XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ilmiy-tehnika inqilobi natijasida aholi ijtimoiy turmush darajasini tobora oshib borishi va madaniyat yutuqlaridan foydalanan imkoniyatlarini kengayishining natijasi deb, hisoblaydilar[6].

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi masalasiga bu ikki yondashuvning asosini aholi gurulularining turmush darajasi va ma‘naviyatida yuz bergan o‘zgarishlar tashkil etadi. Lekin uni aholining savodsizligini tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qonun[7] yoki ommaviy kommunikatsiya vositalari (radio, kino, televidenie, internet va h.k.,) ning vujudga kelishi natijasi sifatida qarash bizningcha to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Chunki tarixda aholining turmush darajasi va madaniyatini rivojlanishiga kuchli ta‘sir etgan o‘zgarishlar yoki kashfiyotlar (teatrning vujudga kelishi, kitob bosish stanogining kashf etilishi va h.k.,) juda ko‘p bo‘lgan. Shu bois, XIX asrning oxiridan - XX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davr mobaynida fan va texnika rivojlanishida, san’at va adabiyotda qo‘lga kiritgan yutuqlar ommaviy madaniyatni vujudga kelishi jarayonini yakunlaganligi, deb qayd etishimiz mumkin.

“Ommaviy madaniyat”ning dastlabki ko‘rinishi bir butun holda muqaddas xarakterga ega an‘anaviy madaniyatdan mohiyatan sayoz va xordiq chiqarishning g‘ayrioddiy turlarini targ‘ib qiluvchi madaniyat turi ajralib chiqqan davrlarda paydo bo‘lgan. Masalan, “Ommaviy madaniyat”ning rivojlanishi qadimgi shahar-davlatlar nomi bilan bog‘liq bo‘lib, jumladan, qadimgi yunoniston, Rim va Bobilda tomoshalar, ko‘zboylig‘ichlar, ko‘cha qo‘schiqchilar va raqqoslari misolida ko‘ngilxushlik qilish turi keng yoyilgan edi[8].

Ommaviy madaniyat fenomen sifatida jamiyatda ommalashib tarqaluvchi jarayonlarni vujudga keltiradi. Masalan, millatlar kelajagiga ijobiy ta‘sir qiluvchi jarayonlar, ya’ni mamlakatlarning o‘lmas va bebafo qadriyatlarining tarqalishi bilan birga, jamiyat uchun salbiy ta‘sirga ega bo‘lgan hodisalar ham ommaviylik asosida tarqaladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2022 yil
2. <http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/>
3. <http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/>
4. Vvedenie v kulturologiyu. –M., 1996. –S. 63.
5. Vvedenie v kulturologiyu. –M., 1996. –S. 63.

6. Kulturologiya teoriya i istoriya kultury. –M., 1996. –S.54-55.
7. 1870 yilda Buyukbritaniyada majburiy umumiy savodxonlik to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Vvedenie v kulturologiyu – M., 1996. –S. 63.
8. Chumakov A.N. Metafizika globalizatsii. Kulturno-sivilizatsionnyy kontekst. 2-ye izd., ispravl. i dopoln. M. Prospekt 2017. - 496 s.